

## EMAN YONG'OG'INING XALQ TABOBATIDAGI AHAMIYATI

*Otaxonov Qobuljon Qaxramonovich*

*Andijon davlat universiteti*

*Kimyo fanlari doktori, dotsent.*

*Ibragimova Mashxuraxon Xusanovna*

*Andijon davlat universiteti*

*Kimyo mutaxassisligi 1- bosqich magistranti.*

**Annotatsiya:** Ushbu ishda eman yong'og'ining xalq tabobatidagi ahamiyati, uning kimyoviy tarkibi va biologik faol moddalari ilmiy asosda yoritilgan. Eman yong'og'ining taninlar, flavanoidlar va boshqa foydali komponentlarga boyligi hamda ularning inson organizmiga ta'siri tahlil qilingan. Shuningdek, unung diareyaga qarshi, yallig'lanishga qarshi va antioksidant xususiyatlari ochib berilgan. Eman yong'og'ining shifobaxsh xususiyatlari xalq tabobati tajribasi va zamonaviy ilmiy qarashlar asosida baholangan.

**Kalit so'zlar:** eman yong'og'i, xalq tabobati, taninlar, flavanoidlar, biologik faol moddalari, antioksidant, yallig'lanishga qarshi, shifobaxsh o'simliklar, tabiiy dori vositalari.

Qadim zamonlardan buyon insinoyat tabiat ne'matlaridan shifo manbai sifatida foydalanib kelgan. Ayniqsa, o'simlik qismlari va daraxt mevalarining xalq tabobatidagi o'rni muhim hisoblanadi. Eman yong'og'i ham shunday tabiiy manbaalardan biri bo'lib, u nafaqat oziq-ovqat mahsuloti sifatida, balki ko'plab kasalliklarni davolashda qo'llaniladi.

Eman daraxti ( lotincha nomi: Quercus) keng tarqalgan bo'lib, uning yong'oqlari boy kimyoviy tarkibga ega. Eman yong'og'i tarkibida oqsillar, vitaminlar, taninlar, flavonoidlar, kraxmal yog'lar va orgahik kislotalar mavjud. Bu moddalar organizmda turli biologik jarayonlarni qo'llab - quvvatlashda muhim rol o'ynaydi.

Xalq tabobatida eman yong'og'i asosan ichki a'zolar faoliyatini yaxshilashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, u ichak faoliyatini tartibga solishda samarali vosita sifatida qo'llaniladi. Uning tarkibidagi taninlar tortuvchi (astringent) xususiyatga ega bo'lib, diareya va ich ketish holatlarida keng qo'llaniladi. U ichak devorlarini mustahkamlab. Ortiqcha suyuqlik ajralishini kamaytiradi va zararli mikroorganizmlarning rivojlanishini oldini oladi. Bundan tashqari eman yong'og'ining damlamasi va qaynatmasi og'iz bo'shlig'i kasalliklarida, jumladan, stomatit va milk yallig'lanishida chayqash vositasi sifatida ham ishlatiladi. Bu esa uning antiseptik va dezinfeksiyalovchi xususiyati borligini ko'rsatadi.

Zamonaviy ilmiy tadqiqotlar eman yong'og'ining antioksidant xususiyatlarini ham tasdiqlamoqda. Uning tarkibidagi flavanoidlar erkin radikallarni zarasizlantirish orqali hujayralarni himoya qiladi. Bu esa organizmdagi qarish jarayonlarini sekinlashtirish va yurak - qon tomit kasalliklari kabi surunkali xastaliklarning oldini olishda muhim ahamiyatga ega.

Shuningdek, ayrim hududlarda eman yong'og'ini quritilib maydalangan holatida un o'rnida yoki ichimliklar tayyorlashda ishlatiladi. Bu esa uning yuqori ozuqaviy qiymatga ega ekanligini ko'rsatadi. Biroq eman yong'og'idan foydalanishda me'yorni saqlash muhimdir. Tarkibidagi taninlar ortiqcha miqdorda iste'mol qilinganda organizmga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu sababli undan foydalanganda mutaxassis tavsiyalariga rioya qilish tavsiya etiladi.

**Xulosa:** eman yong'og'i xalq tabobatida keng qo'llaniladigan, boy kimyoviy tarkibga va ko'plab foydali xususiyatlarga ega bo'lgan tabiiy vosita hisoblanadi. Uning shifobaxsh xususiyatlari nafaqat xalq tajribasida, balki ilmiy tadqiqotlar orqali ham o'z tasdig'ini topmoqda. Kelajakda eman yong'og'I asosida yangi dori vositalari yaratish imkoniyatlari mavjud.